Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 37.018.1:316.614
ORCID: 0009-0006-9552-7535

TOSHPULATOV OLIM PANJIYEVICH
Termiz davlat pedagogika instituti,
registrator ofis menejeri
Email: olimtoshpulotov5@gmail.com

O'QUVCHINING SHAXSIY TA'LIM TRAYEKTORIYASINI LOYIHALASHGA TA'SIR ETUVCHI ICHKI VA TASHQI PEDAGOGIK OMILLAR

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada o'quvchining shaxsiy ta'lim trayektoriyasini loyihalashga ta'sir etuvchi ichki va tashqi pedagogik omillar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi individual ta'lim yo'lini belgilovchi omillarni tasniflash, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish hamda pedagogik amaliyotda yuzaga keladigan muammolarni aniqlab, ilmiy asoslangan yechimlar taklif etishdan iborat. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va tizimlashtirish, qiyosiy-pedagogik tahlil, tarkibiy-funksional modellashtirish hamda pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanilgan. Tahlil natijasida ta'sir etuvchi omillar ikki guruhga ajratilib tizimlashtirilgan: ichki omillar (kognitiv profil, motivatsiya, psixoemosional holat, o'rganish uslubi va fiziologik xususiyatlar) hamda tashqi omillar (o'qituvchi kompetentligi, oilaviy muhit, sinf iqlimi, raqamli texnologiyalar va tengdoshlar guruhi ta'siri). Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ushbu ikki guruh omil bir-biridan ajralgan holda emas, balki doimiy dialektik birlikda harakat qiladi va ta'lim natijalariga birgalikda ta'sir etadi. Xulosada pedagogning omillarni yaxlit tizim sifatida diagnostika qilishi, ularning dinamikasini muntazam monitoring yuritishi va trayektoriyani o'quvchi bilan hamkorlikda tuzatib borishi zarurligi asoslangan hamda diagnostik bazani kuchaytirish, o'qituvchilar tayyorgarligini takomillashtirish va raqamli monitoring tizimini joriy etishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

KALIT SO'ZLAR: *shaxsiy ta'lim trayektoriyasi, ichki omillar, tashqi omillar, individual ta'lim, motivatsiya, ta'lim muhiti, differensial ta'lim, pedagogik loyihalash*

ВНУТРЕННИЕ И ВНЕШНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЕКТИРОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАЕКТОРИИ УЧАЩЕГОСЯ

АННОТАЦИЯ: В данной статье проводится научно-теоретический анализ внутренних и внешних педагогических факторов, влияющих на проектирование индивидуальной образовательной траектории учащегося. Основная цель исследования - классифицировать факторы, определяющие индивидуальный путь обучения, раскрыть их взаимосвязь, а также выявить проблемы педагогической практики и предложить научно обоснованные решения. В работе использованы методы теоретического анализа и систематизации научной литературы, сравнительно-педагогического анализа, структурно-функционального моделирования и педагогического наблюдения. В результате анализа факторы разделены на две группы: внутренние (когнитивный профиль, мотивация, психоэмоциональное состояние, стиль обучения и физиологические особенности) и внешние (компетентность учителя, семейная среда, климат класса, цифровые технологии и группа сверстников). Исследование показало, что обе группы факторов действуют не изолированно, а в диалектическом единстве. В заключении обоснована необходимость того, чтобы педагог диагностировал факторы как целостную систему, осуществлял мониторинг их динамики и корректировал траекторию в сотрудничестве с учащимся, а также разработаны практические рекомендации по укреплению диагностической базы, совершенствованию подготовки учителей и внедрению системы цифрового мониторинга. Показано, что индивидуализированный подход является не факультативным дополнением, а необходимым условием полноценного развития каждого учащегося в современной образовательной системе. Предложенные меры способствуют формированию научно обоснованной практики проектирования индивидуальной образовательной траектории и сближению с международными педагогическими стандартами. Особое внимание в работе уделено роли педагога как «архитектора» и «навигатора» индивидуального пути обучения, а также значению цифровых технологий как катализатора персонализации образования.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *индивидуальная образовательная траектория, внутренние факторы, внешние факторы, индивидуальное обучение, мотивация, образовательная среда, дифференцированное обучение, педагогическое проектирование.*

ISSN: 3060-4761

INTERNAL AND EXTERNAL PEDAGOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DESIGN OF A STUDENT'S PERSONAL LEARNING TRAJECTORY

ABSTRACT: This article presents a scientific-theoretical analysis of the internal and external pedagogical factors that influence the design of a student's personal learning trajectory. The main aim of the study is to classify the factors that determine an individual learning pathway, to reveal their interrelation, and also to identify the problems that arise in pedagogical practice and to propose scientifically grounded solutions. The research employs the methods of theoretical analysis and systematisation of scientific literature, comparative-pedagogical analysis, structural-functional modelling, and pedagogical observation. As a result of the analysis, the influencing factors are divided into two groups and systematised: internal factors (cognitive profile, motivation, psycho-emotional state, learning style, and physiological characteristics) and external factors (teacher competence, family environment, classroom climate, digital technologies, and the influence of the peer group). The study shows that the two groups of factors operate not in isolation but in a constant dialectical unity, jointly affecting learning outcomes. The conclusion substantiates the necessity for the teacher to diagnose the factors as an integrated system, to carry out regular monitoring of their dynamics, and to adjust the trajectory in cooperation with the student; practical recommendations are also developed for strengthening the diagnostic base, improving teacher training, and introducing a digital monitoring system.

KEYWORDS: personal learning trajectory, internal factors, external factors, individual learning, motivation, learning environment, differentiated instruction, pedagogical design.

KIRISH. XXI asr ta'lim tizimi o'quvchini bilimni passiv qabul qiluvchi sifatida emas, balki o'z ta'lim yo'lini ongli ravishda quradigan faol subyekt sifatida talqin etadi. Shu nuqtayi nazardan shaxsiy ta'lim trayektoriyasi (keyingi o'rinlarda - STT) tushunchasi zamonaviy pedagogik diskursda markaziy o'rinni egallaydi. STT - o'quvchining individual xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib shakllanadigan o'ziga xos ta'lim yo'lidir.

O'zbekiston Respublikasida ta'limni modernizatsiya qilishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar — xususan, Prezidentning 2022-yil 11-maydagi PF-60-son Farmoni hamda "Maktab ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi" - har bir o'quvchining shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqaruvchi individual yondashuvni ustuvor vazifa sifatida belgilab bergan [1; 2]. Mazkur siyosiy-huquqiy negiz ta'lim muassasalarida STT loyihalashga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy tahlil qilish dolzarbligini oshiradi.

Pedagogika fanida individual ta'lim yo'lini belgilovchi omillarni yaxlit tizim sifatida o'rganish masalasi hozircha yetarlicha tadqiq etilmagan. Aksariyat tadqiqotlar ayrim omillarni alohida ko'rib chiqish bilan cheklanadi. Shuning uchun ushbu maqolaning maqsadi STT loyihalashga ta'sir etuvchi ichki va tashqi pedagogik omillarni tasniflab, ularning pedagogik jarayondagi o'zaro bog'liqligini ochib berish, mavjud muammolarni aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Shaxsiy ta'lim trayektoriyasi muammosi qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. H. Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi har bir o'quvchining o'ziga xos kognitiv profili borligini asoslab, individual ta'lim yo'lini loyihalashning nazariy zaminini shakllantirgan. L.S. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" kontseptsiyasi esa o'quvchining mavjud imkoniyatlari bilan potensial rivojlanish darajasi orasidagi tafovutga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Motivatsion omillar nuqtayi nazaridan E. Deci va R. Ryan ishlab chiqqan o'z-o'zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory) o'quvchining ichki motivatsiyasi ta'lim sifati va davomiyligiga bevosita ta'sir etishini empirik tarzda asoslagan. Ushbu nazariyaga ko'ra, STT loyihalashda o'quvchining mustaqillik, kompetentlik va aloqadorlik ehtiyojlarini qondirish ustuvor shartga aylanadi.

Toshpulatov o'z tadqiqotlarida o'quvchining shaxsiy ta'lim trayektoriyasi nafaqat uning bilim va qobiliyat darajasini, balki qadriyat yo'nalishlari, hayotiy maqsadlari va ijtimoiy muhit ta'sirini ham hisobga olgan holda qurilishi lozimligini ta'kidlaydi [6]. Bu pozitsiya STT loyihalashning ko'p omilli tabiatini tasdiqlovchi metodologik asos sifatida mazkur tadqiqot yo'nalishini belgilab berdi.

U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi bola rivojlanishi va ta'limiga ta'sir etuvchi omillarni mikro-, mezo-, ekzo- va makrotizimlar darajasida ko'rib chiqishni taklif etadi; ushbu yondashuv tashqi omillarni tasniflashda metodologik tayanch bo'ldi. N.N. Azizxo'jayeva esa pedagogik texnologiyalar kontekstida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda o'qituvchining diagnostik funksiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan [4].

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va tizimlashtirish; qiyosiy-pedagogik tahlil; tarkibiy-funksional modellashtirish; pedagogik kuzatuv hamda natijalarni umumlashtirish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. 1. STT tushunchasining pedagogik mohiyati. Shaxsiy ta'lim trayektoriyasi - o'quvchining individual xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ta'lim maqsadlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, pedagog bilan hamkorlikda quriladigan maqsadga yo'naltirilgan ta'lim yo'lidir. Standartlashtirilgan ta'lim dasturidan farqli o'laroq, u o'quvchini markazga qo'yadi va uning shaxsiy rivojlanish dinamikasini hisobga oladi. Toshpulatov ta'kidlaganidek, STT statik hujjat emas, balki ta'lim jarayonida muntazam kuzatiladigan, tuzatiladigan va yangilanadigan dinamik loyihadir [6]. Loyihalash jarayoni uch bosqichni qamrab oladi: diagnostika (o'quvchining hozirgi holati, imkoniyatlari va ehtiyojlarini aniqlash); loyihalash (individual ta'lim rejasi va maqsadlarini belgilash); monitoring va tuzatish (natijalarni kuzatib borish hamda zarur hollarda trayektoriyani yangilash).

2. Ichki pedagogik omillar. Ichki omillar o'quvchining shaxsiyatidan kelib chiqib, uning ta'lim jarayonidagi faolligini, o'zlashtirish sur'atini va natijalarini belgilaydi.

Kognitiv omillar. Ko'p intellekt nazariyasiga ko'ra, har bir o'quvchida lingvistik, mantiqiy-matematik, musiqiy, fazoviy, kinestetik, naturalistik, shaxslararo va ichki-shaxsiy intellektlar turli darajada rivojlangan bo'ladi. STT loyihalashda o'quvchining kuchli intellekt turini aniqlash va shu ustunlikka tayanib ta'lim yo'lini qurish samaradorlikni oshiradi.

Motivatsion omillar. O'z-o'zini belgilash nazariyasiga muvofiq, ichki motivatsiya - o'quvchining ta'limga bo'lgan shaxsiy qiziqishidan kelib chiqqan harakatlantiruvchi kuch - tashqi rag'batlarga qaraganda natijalarga kuchliroq ta'sir etadi. Motivatsiya STTni qurishda asosiy harakatlantiruvchi vazifasini bajaradi: u yuqori bo'lganda o'quvchi to'siqlarni yengib, trayektoriyani mustaqil rivojlantirishga intiladi.

Psixoemosional holat va o'z-o'zini baholash. Vigotskiy ko'rsatganidek, o'quvchining o'ziga ishonchi va psixoemosional barqarorligi "yaqin rivojlanish zonasi"dan samarali foydalanish uchun muhim shartdir

[4]. Past o‘z-o‘zini baholash yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquv STTning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi; shu bois psixologik xavfsizlik muhitini yaratish loyihalashning zaruriy shartiga aylanadi.

O‘rganish uslubi va fiziologik xususiyatlar. Har bir o‘quvchi ma’lumotni qabul qilish va qayta ishlashda o‘ziga xos uslubni (vizual, audial, kinestetik yoki diskret) afzal ko‘radi. Shuningdek, jismoniy sog‘liq va neyrobiologik xususiyatlar - masalan, diqqat tanqisligi, o‘rganish qiyinchiliklari yoki iqtidorlilik - STTning shakli va mazmuniga bevosita ta’sir etadi. Bu omillarni e’tiborsiz qoldirish trayektoriyaning samarasizligiga olib keladi.

3. Tashqi pedagogik omillar. Tashqi omillar o‘quvchidan tashqarida joylashgan, biroq uning ta’lim faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan pedagog, oila, ijtimoiy muhit va texnologiyalar bilan bog‘liq omillardir.

O‘qituvchi kompetentligi. Toshpulatov o‘qituvchini STT loyihalashda bir vaqtning o‘zida “me’mor” va “navigator” sifatida ta’riflaydi: u o‘quvchining imkoniyatlarini diagnostika qiladi va eng maqbul yo‘lni belgilashda hamkor sifatida ishtirok etadi. O‘qituvchining differensial ta’lim texnologiyalarini bilishi, formativ baholashni qo‘llay olishi STT sifatini bevosita belgilaydi.

Oilaviy muhit va ota-ona ta’siri. Ekologik tizimlar nazariyasiga ko‘ra, oila o‘quvchi rivojlanishidagi eng yaqin mikrotizimdir. Oiladagi ta’lim muhiti, ota-onalarning ta’limga munosabati, iqtisodiy ahvol va madaniy qadriyatlar STTga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Maktab-oila hamkorligi mustahkamlanganda o‘quvchilarning ta’lim motivatsiyasi va natijalari sezilarli yaxshilanadi.

Ta’lim muhiti va sinf iqlimi. Xavfsizlik, hurmat va hamkorlikka asoslangan ijobiy sinf iqlimi STT rivojlanishida hal qiluvchi shartdir. Sharipovning kuzatuvlari psixologik xavfsiz muhitda o‘quvchilarning o‘z ta’lim yo‘lini mustaqil loyihalashga tayyorligi sezilarli ortishini ko‘rsatadi [10]. Bundan tashqari, muassasaning moddiy-texnik bazasi, kutubxona fondi va qo‘shimcha ta’lim imkoniyatlari ham tashqi omillar qatoriga kiradi.

Raqamli va texnologik muhit. Toshpulatov va Xoliqov raqamli texnologiyalarni STT loyihalashning kuchli katalizatori sifatida baholaydi: adaptiv o‘qitish tizimlari, shaxsiylashtirilgan tavsiya algoritmlari va elektron portfoliolar o‘quvchiga trayektoriyani real vaqt rejimida kuzatish va tuzatish imkonini beradi [6].

Tengdoshlar guruhi ta’siri. O‘quvchi mansub guruh, sinfdoshlar va tengdoshlarning ta’limga munosabati hamda qadriyatlar tizimi STT shakllanishiga ta’sir qiladi. Jamoaviy o‘rganish sharoitida o‘quvchilar bir-biridan o‘rganib, o‘z trayektoriyalarini boyitadilar [7].

4. Ichki va tashqi omillarning o‘zaro bog‘liqligi. Ichki va tashqi omillar bir-biridan ajralgan holda emas, balki doimiy dialektik aloqada amal qiladi. Masalan, yuqori ichki motivatsiyaga ega, biroq noqulay oilaviy muhitdagi o‘quvchining STTsi to‘siqqa uchrashi mumkin; aksincha, boy tashqi muhit va o‘qituvchi qo‘llab-quvvatlashi zaif motivatsiyani qisman qoplaydi. Shu bois STT loyihalash barcha omillarni yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Toshpulatov ta’kidlaganidek, muvaffaqiyatli loyihalash uchun pedagog har bir o‘quvchi bo‘yicha ichki va tashqi omillarni aks ettiruvchi kuzatuv kartasini tuzishi, ularning dinamikasini muntazam kuzatib borishi va trayektoriyani shunga muvofiq tuzatib turishi lozim.

5. Muammolar va yechimlar. Birinchi muammo - ko‘plab o‘qituvchilarning STT loyihalash metodologiyasini yetarli darajada egallamaganligi. Yechim sifatida oliy pedagogik ta’limda maxsus kurslar joriy etish va malaka oshirish tizimini takomillashtirish taklif etiladi. Ikkinchi muammo - diagnostik vositalarning yetishmasligi: kognitiv profil, motivatsion holat va o‘rganish uslubini aniqlovchi, o‘zbek tiliga moslashtirilgan standartlashtirilgan metodikalar yetarli emas; yechim - milliy diagnostik bazani shakllantirish. Uchinchi muammo - tashqi omillarning tizimli boshqarilmasligi; yechim - maktab-oila hamkorligini kuchaytirish hamda ijtimoiy-pedagogik va psixologik xizmat infratuzilmasini rivojlantirish. To‘rtinchi muammo - kuzatuv va baholash tizimining zaifligi; yechim - elektron portfolio platformasini barcha ta’lim muassasalarida joriy etish va STT dinamikasini real vaqtda kuzatish.

XULOSA. Tadqiqot natijalari o‘quvchining shaxsiy ta’lim trayektoriyasini loyihalash ko‘p omilli va dinamik jarayon ekanligini ko‘rsatdi: unda ichki (kognitiv, motivatsion, psixoemosional, fiziologik) va tashqi (o‘qituvchi, oila, muhit, raqamli texnologiyalar, tengdoshlar) omillar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni isbotladiki, STT loyihalashda muvaffaqiyatga erishish uchun pedagog ikkala omillar guruhini yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqishi, ularni doimiy kuzatib borishi va trayektoriyani o‘quvchi bilan hamkorlikda dinamik tarzda tuzatib turishi shart. Individuallashtirilgan ta’lim endi zamonaviy ta’lim tizimining ixtiyoriy qo‘shimchasi emas, balki har bir o‘quvchining to‘liq rivojlanishini ta’minlovchi zaruriy shartdir.

Tavsiya etilgan chora-tadbirlar - diagnostik bazani kuchaytirish, o‘qituvchilar tayyorgarligini takomillash-tirish, oila hamkorligini mustahkamlash va raqamli monitoring tizimini joriy etish — amalga oshirilsa, O‘zbekiston ta’lim tizimida STT loyihalashning ilmiy asoslangan amaliyoti shakllanadi va xalqaro pedagogik standartlarga yaqinlashish jarayoni tezlashadi.

ISSN: 3060-4761

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-60-son "Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2022.

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 11 iyundagi 343-son "Maktab ta'limini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2021.

3.Toshpulatov O.P. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: nazariy asoslar va amaliy yechimlar. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020. – 178 b. (Personalized education: theoretical foundations and practical solutions)

4.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2006. – 192 b. (Pedagogical technologies and pedagogical skill)

5.Toshpulatov O.P., Xoliqov A.A. Raqamli pedagogika: o'qituvchi tayyorlashning innovatsion modeli. – Toshkent: Yangi nashr, 2021. – 245 b. (Digital pedagogy: an innovative model of teacher training)

6.Sharipov Sh.S. Ta'lim jarayonida interaktiv texnologiyalardan foydalanish samaradorligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 128 b. (The effectiveness of using interactive technologies in education)

7.Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 208 b. (Fundamentals of pedagogical technology)